

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING „XORAZM, JONGINAM” HIKOYASIDA ONA VATAN KONSEPSIYASI

Qurbanova Sevinch Sherzod qizi

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi

Anotatsiya: Mazkur maqolada xalqimizning atoqli adiblaridan biri Shukur Xolmirzayevning „Xorazm,jonginam” hikoyasida Vatan konsepsiysi, inson va uning ruhiy olami, hayotdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: yozuvchi, Vatan. obraz, personaj, konsepsiya, pafos, qadriyat, maqom, terma

Ma'lumki, Shukur Xolmirzayev Surxondaryo vohasining yetuk adiblaridan biridir. U deyarli nasrning ko`pgina turlarida ijod qilgan bo`lib, asarlarida, asosan, hayot, inson va jamiyat munosabatlari keng qamrovli o`rin egallaydi. Hayot haqiqati, o'zbek xalqining turmush tarzi, qadriyatları, o`y-kechinmalari o`z holicha tasvirlanishi sababli yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo`lgan barcha kitobxonlarga birdek manzur keladi.

Adibning shunday hikoyalaridan biri “Xorazm, jonginam” hikoyasidir. Ushbu hikoya mustaqillikdan oldingi yillarda yozilgan bo`lib, yozuvchi unda ijtimoiy hayot masalalari haqida yozadi. Hikoyadahgi birgina dutor detali yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek xalqimizning madaniyatini, milliylik ongu shuuriga singib ketganligini ko’rsatuvchi predmet detal sifatida ishlatilgan.

Hikoya shunday tasvir keltiriladi: “Otam eskitdan rubobsoz edi. (...) Hozir ham ko’z oldimda turibdi: men u kishini ko’rgani borgan vaqtlarimda goho tong saharda uydan topolmay qolaman. Ko’chaga chiqsam, po’stin egnida, boshida cho’girma, kimsasiz, baland, koshonalar orasida gangib, bir kuyga qulq solgan kabi yurgan bo’ladi. G’alati manzara-da: hech kim yo’q ko’cha. Karvich devorlar baland. Ular osha qadim gumbazlar ko’rinib turadi. O’tmish, o’tmishning o’zi... Shular orasida birov aylanib yursa! Tag’in u odam gangib-garangsib yursa! Tomosha qilib emas, yo’q. Nima desam ekan, otam bunday ko’chalarda qandaydir... mana shu manzara bilan uyg’unlashib ketardi: uning uzviy bir bo’lagiga aylanardi”[1:114].

Inson unutuvchi... Yoshlik beboslik deganlaridek,o’tkinchi dunyoning hoy-u havaslariga uchib yonimizdagı insonlarning, atrofimizdagı narsalarnining qadriga yetmaymiz. Vaqt... Ba’zida yaxshi tilaklarga yetishtiruvchi, ba’zida esa orzularimizni armonga aylantirib, yorug`, nurafshon hayotimizni qaro zulmat bag`riga chorlovchi vosita. Hayot sir-sinoatga boy bo`lib, ba’zan achchiq, ba’zan shirin damlarni bizga in’om etadi. Nima bo’lganda ham insonning hozir qay holatda va ertangi kuni qay

darajada bo'lishi uning o'ziga, qanday yashashi, qilayotgan amallariga bog'liqdir. Inson yashar ekan, Vatan tushunchasi uning jon – joniga, qon – qoniga singib ketadi. Vatanni anglash – o`zlikni anglash demakdir.

Xorazm... O'zbekistondagi eng ko'rksam, eng qadimiy shaharlardan biri. Bu shahar o`zining qadimiy boy tarixi, milliy ashulalari, maqomlari, va raqslari, hunarmandchilik buyumlari bilan dunyoga mashhur. Hikoyamiz qahramoni ham kasbi ashulachi. Bu yigit „o'zicha” O'zbekistondagi barcha viloyatlarni, shaharlarni o`z Vatani deb hisoblaydi. Otasi Xorazmning mashhur rubobsoz ustalardan. U kishi Xorazm maqomlarining yo`q bo`lib ketmasligi maqsadida, tor sozlatish uchun kelgan xonandalarga ularni ko`proq kuylash, rivojlantirishni ko`p tayinlaydi. Shu o`rinda aytib o`tish kerakki, u Xorazmni juda ham yaxshi ko`radi. Xorazm zaminida ilm-fan, madaniyat, san'at rivojlanishini chin yurakdan niyat qiladi. Ammo Xorazm gullab yashnagan avvalgidek go`zal qiyofada emas. Orol fojiasi bu yurtga ham o`z ta'sirini ko`rsatgan. Havosi yaxshi emas, yerlari tobora sho`rlanib bormoqda edi. Noqulay ob-havo sababli odamlar ham boshqa joylarga ko`chishni boshlagandi. Shu sababli bizning qahramon ham Toshkentga ko`chish, o`z uyini sotish payiga tushadi. Hayotga yengil-yelpi nazarda qaraydigan bu yigit, Vatan nima ekanligini, u nima uchun kerakligini his qilmas edi. Aytib o`tish kerakki, u siz o`ylaganchalik yomon ham emas, lekin yoshlik hissiyyotlariga berilib hayotni anglashni, atrofidagi narsalarni qadriga yetishni xohlamaydi, xolos. Ammo Vatanini, o`z tuprog`ini jonidan ortiq sevuvchi ota u bilan ketishga, uyini sotishga aslo rozi bo`lmaydi. Ushbu hikoyani o`qir ekanman, hikoya qahramonidan ba'zan nafratlanar, otasiga esa achinar edim. Vatanga fidokorlik, Vatanga muhabbat qay darajada bo`lishi mana shu oddiy ota obrazi orqali talqin etiladi. U so`ngi nafasigacha jonidan ortiq ko`rgan Xorazm shahriga fidokorona yashadi. O`z fikrini boshqalarnikidan ustun qo`yuvchi o`g'il esa, ota vafotidan keyin uyini sotib Toshkentga ketadi. Ammo yuragining bir parchasi Xorazm ekanligini, usiz bir lahma ham yashay olmas ekanligini kech anglab yetgan edi. “ - Xiva, o`sha minorlar, eski karvich devorlar, tor ko`chalar, sag`anazor mozorlar meni tortdi. Mayli, bari to`kilib, chirib ketmaydim!.. Men o`sha yerga boraman. Balki... balki bu bir holatdir? Lekin men tug`ilgan yurtimni qaytadan kashf etdim. U tap- taqir cho`l, sahro bo`lib qolgandayam – mening tuprog`im ekan. O`liblar ketmaymanmi o`sha yerda! Xorazm, jonginam Bu manglayi qora o`g`ling tag`in bag`ringga borayotir. Bu sayoq farzanding dunyoning ko`p o`yinlarini tushunmaydi: o`yladi, o`yladi. Kuchi shunga yetdi, xolos’’[1:151].

Vatan... U nima o`zi? Nima uchun Vatan so`zini eshitganimizda yuragimiz boshqacha uradi? Uning boshlanish nuqtasi qayer?

Xulosa o`rnida shuni aytishimiz mumkinki, Vatan boshqa yerdan emas, Vatan oilamizdan, tug`ilib o`sgran uymizdan, chopqillab katta bo`lgan ko`chalarimizdan boshlanadi. Aslida, shularni sevmoq Vatan emasmi? Adib ijodida Vatan konsepsiysi

sayoq personajning o‘z tug‘ilgan go‘siasi Xorazm shahri misolida yorqin oolib berilgan. Hikoyani o‘qib, Vatanni anglash, uni e’zozlash xalqimizning buyuk qadriyatlaridan biri ekanligini his qilamiz.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Xolmirzayev Sh. Saylanma: II J. – Toshkent: “Sharq”, 2005. – J. 2. – B. 114.
2. Sultonqulova F. (2021) Usmon Azim she’riyatida Kuz metaforasi./ So‘z san’ati xalqaro jurnalni. 4 jild. №3-son. B. 60-66.
3. [Sultonqulova, F. \(2020\). Metaphorical images in Osman Azim poetry. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 \(84\), 537-539. Soi: http://s-o-i.org/1.1/TAS.](http://s-o-i.org/1.1/TAS)
4. [Sultonqulova, F. \(2021\). Metaphors of colors in Usman Azim poetry. ISJ Theoretical & Applied Science, 02 \(94\), 350-353. Soi: http://s-o-i.org/1.1/TAS](http://s-o-i.org/1.1/TAS)
5. [Sultonqulova, F. \(2022\) Усмон Азим шеъриятида фольклоризм асосидаги метафоралар // International Conference “Language and cultures: Prospects for Development in the 21st Century”. – p.p. 177-178.](#)
6. Yuldashev, N.T. (2019). Tradition and novelty in Chulpan poetry. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 12(80), p.576.
7. [Raimova S.\(2019\) Artistic interpretation of religious and educational issues of uzbek poetry in the period of independence.\(As an example works of A.Aripov,A.Mahkam and A.Uktam\) //ISJ Theoretical and applied sciences. – № 11 \(71\). – P. 42-44. Impact Factor: 6.6.](#)
8. Raimova S. (2021) Artistic arts in the works of Asqar Mahkam //ISJ Theoretical and applied sciences. – 2021.– № 06. (98). – P. 347-349. Impact Factor: 6.6.
9. [Hayitova Yu. Some strokes to the poem of the Shodmonkul Salom.// ISJ Theoretical & Applied Science, 10 \(102\), 1033-1036.](#)
10. [TO‘LIBOYEV, S. \(2022\). Mustaqillik yillarda o‘zbek-turk adabiyot aloqalari ./Filologik tadqiqotlar Til, adabiyot, ta’lim. 2023, 4. – 84-85.](#)